

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

TALABALARDA ETNOMADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA TIL SAVODXONLIGINING AHAMYATI

Andijon davlat universiteti

tayanch doktoranti

A.B.Isomiddinov

Annotatsiya: talabalar turli millat tillarini o'zlashtirishi lingvistik kompetensiyani rivojlantirish bilan birga tafakkur rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Insonning intellektual qobiliyatini til o'rghanish savodxonligi takomillashtirish o'sha millatning madaniyati, taraqqiyoti haqidagi tassavurlarini pedagogik faoliyatida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rghanish va amaliyatga tatbiq etish orqali etnomadaniy kompetensiyani har tomonlama shakllanishiga ta'siri haqida maqolada yoritib berdik. Ilmiy izlanuvchilar va barcha mutaxasislar maqoladan ilm yo'lida foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: bilim, etnomadaniyat, intellektual qobiliyati, lingvistik kompetensiyani, milliy madaniyat, milliy tarbiya, ta'lim, til kompetensiyasi, til savodxonligi, urf-odatlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi qarorida "ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlarni shakllantirish ularni o'rghanish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarning avloddan-avlodga bezavol o'tib borishini ta'minlash"[3] vazifasi belgilangan. Darhaqiqat, talaba-yoshlarni oliy ta'lim jarayonida kasbiy faoliyatga ham ma'naviy ham pedagogik jihatdan tayyorlash muhim sanaladi. Ayniqsa ularda milliy ma'naviyatimiz, xalqimizning asriy ma'naviy merosi haqidagi bilim va tasavvurlarini mustahkamlash dolzarb hisoblanadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda talabalarga etnik ya'ni milliy tarbiyaga asoslangan yondashuvlar amalga oshirish maqsadga muvofiq. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4–moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir[1]. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf–odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” – deb ko‘rsatilgan, demak har bir fuqaroni milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish masalasi ta’minlangan. Shunday ekan, talabalarni ham o‘z millatining qadriyatlari va an’analariga sadoqatli qilib tarbiyalash orqali etnokompetensiya shakllanishiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuning 4–moddasida “Ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi” tamoyili keltirilgan. Qonunda ko‘zlangan maqsad ham yosh avlodda milliy ruhiyatni shakllantirishdan iborat. Oliy ta’lim potensiali jamiyat talablarini bajara oladigan darajada tashkil etilishi zarur. Asosan o‘quv–tarbiyaviy jarayonlar, auditoridan tashqari vaqlarda talabalarga mamlakatimizning ijtimoiy–madaniy sohadagi taraqqiyotini ta’minlash hamda millatlararo birdamlik, ijtimoiy nizolarni oldini olishi, milliy madaniyat va turli konvensiyalar o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy tenglikni ta’minlash borasidagi siyosati haqida ma’lumotlar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 33–moddasida “Ta’lim tashkilotlarida o‘qitish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi” deb belgilangan. Shunday ekan, talabalar o‘zbek tili va uning grammatikasini puxta bilishlari talab etiladi. Talabalarning boshqa xorijiy tillarni (rus, ingliz, yapon, turk, xitoy, koreys, qozoq, tojik) bilishi ilmiy va shaxsiy istiqbolini rivojlantiradi, millatlararo muloqotga kirishish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shuningdek, boshqa tillarni o‘zlashtirish nafaqat lingvistik kompetensiyanı rivojlantiradi, balki talabalar o‘sha millatning madaniyati va taraqqiyoti bilan tanishadi. Bu esa talaba shaxsida etnomadaniy kompetensiyanı shakllanishiga yordam beradi. Ko‘p tilni bilish tafakkur rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi, insonning intellektual qobiliyatini rivojlantiradi. Eng muhim pedagogik faoliyatida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish imkoniga ega bo‘ladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Ma'lumki, milliy tilni rivojlantirish natijasida bo'lajak pedagoglar jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shamdi. Chunki, millatni manaviyati, ilm-fandagi yutuqlari, xalqaro arenadagi o'rni tayyorlanayotgan malakali mutaxassislarga bog'liq. Bu borada ko'p tillik boshqa millat vakillari bilan xamkorlik qilishga, millatni ramziy belgilarini namoyish etishga imkon beradi. Eng muhimi boshqa xalqlar tomonidan milliy madaniyat tan olishiga erishiladi, shu sababdan ham talabalarni tilni puxta o'zlashtirishi, ulardagi til kompetensiyasini ham rivojlantiradi. Til kompetensiyasi bevosita etnokompetensiya bilan bog'liqdir. Etnik madaniyat kompetensiyasi bilimga ega bo'lish, insonlarni boshqa odamlar bilan munosabatida bag'rikenglik va o'zaro munosabatida insoniy qadriyatlar bilan namoyon bo'ladi.

Til savodxonligi etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishda muhim ahamyatga egadir. Bu, turli xalqlar madaniyati va etnik guruhlarning o'zaro munosabatlari o'rtasida samarali kommunikatsiya va murojaatni ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydi. Etnik va madaniyatlararo konsepsiylar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida til savodxonligi zarurdir.

Til savodxonligi yordamida, insonlar turli tillarda gaplashish, yozish, o'qish, va tushuntirish bilan xalqaro miqyosda murojaat qilishlari mumkin bo'ladi. Bu, xalqaro doiradagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi va global jamiyatning aloqalar jarayonida millatlararo o'zaro hurmatini kuchaytiradi.

Etnik guruhlarning qo'llab-quvvatlashishi va millatlararo munosabatlarni kuchaytirish uchun til savodxonligi asosiy vosita bo'lib hizmat qiladi. Bu, qo'shma qadriyatni tushunish va qadriyatga hurmat ko'rsatish orqali, millatlarning birligini kuchaytiradi. Ular o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi va aloqalarni mustaxkamlaydi, shuningdek, muammolarni yechishda va jamoatdagi qarorlarning qabul qilinishida yordam beradi.

Bundan tashqari, til savodxonligi etnik identifikatsiyani qo'llab-quvvatlash, o'zaro munosabatlarni kuchaytirish, o'zgarmas yoki o'zgaruvchan jihatlarini tanish va tushunish tuyg'ularini kuchaytirishda yordam beradi. Bu jahon hamjamiyati bilan ta'lim jarayonidagi integratsiyani oshirishda, doiraviy munosabatlar, turli madaniyatlarni asl mohiyatini tushunishda va o'zlashtirishda muhim vosita sifatida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

foydalilanildi.

Ilm-fan tinimsiz rivojlanayotgan, axborot texnologiyasi takomillashib, inson tafakkurining imkoniyati yuksalib borayotgan ayni kunlarda ham til savodxonligi darajasi dunyo miqyosida u qadar yuqori emas. YUNESKOning tegishli tizimlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez ko'payishi, bolalarning ta'lim tizimiga to'liq jalb etilmasligi sababli til savodxonligining pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Hatto yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarda ham savodsiz kishilar miqdori aholi qatlamining kattagina foizini tashkil etadi[4]. Shuning uchun ham 1966-yil YUNESKO ning Bosh anjumanida 80-sentabr Xalqaro savod tarqatish kuni ekanligi belgilab qo'yildi.

Xulosa o'mnida shuni aytishimiz mumkinki, har bir xalq va millat yaralibdiki, o'sha xalq va millatning avvalo, borligini ko'rsatuvchi belgi sifatida ona tili madh etilgan. Insonning g'ururi, millatning sharafi, davlatning yuksakligi milliy tilning ravnaqiga bog'liqdir. Qaysi bir davlatda o'z milliy tili ulug'lanibdimi, demak bu davlatning iftixori yuksak bo'laveradi.

Mustaqil vatanimizda tilining ravnaqi va nufuzini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Davlat tili nufuzi va qadrining yuksak ekanligini BMT Bosh Assambleyasida prezidentimizning ilk bor o'zbek tilida so'zlagan nutqidan bilish qiyin emas. Onatilining mavqeini oshirish borasida qilinayotgan tadbirlar mazmunida ham tilni sharaflash turadi. Bu yuksak martabaga erishmoq yo'li o'zbek tilimiz uchun oson kechmadi[5].

Xalqning, millatning borligini belgilovchi mezon ona tili ekan, uni himoya qilish, qonunlarini hurmat qilish shu xalq va millat vakillarining burchi. Davlat tiliga xiyonat, xalqqa va davlatga bo'lgan xiyonatdir. Qonunning hayotga tatbiq etilishida fuqarolarning shu til imkoniyatlaridan foydalanishdagi madaniyati, savodxonligi, me'yorlari nazarda turiladi.

Etnik madaniyat kompetensiyasi bilimga ega bo'lish, insonlarni boshqa odamlar bilan munosabatida bag'rikenglik va o'zaro munosabatida insoniy qadriyatlar bilan namoyon bo'ladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Talabalarda til savodxonligi takomillashtirish orqali etnomadaniy kompetensianing shakllanishi natijasida qadriyatlar xalqimizning beba boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omili ekanligini anglab yetadi. Xalqimizga xos bo‘lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi til savodxonligi mardlik, tantilik, mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, o‘zaro hurmat, birodarlik, bag‘ri kenglik, mehribonlik kabi shaxsiy fazilatlarni o‘zlashtiradi.

Natijada ular boshqa millatning madaniyati, belgilari, ramzları, urf–odatlari, milliy kiyimlari hattoki imijini ham o‘zlashtirib oladi. Millatning milliy qaxramonlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish, badiiy va publistik adabiyotlarini mutolaa qilish, ommaviy axborot vositalari orqali ulardagi yangiliklardan xabardor bo‘lish etnomadaniy kompetensianing rivojlantiradi. Bundan tashqari talabalar xalqaro–huquqiy hujjatlarni bilish orqali millatlar o‘rtasidagi muammolarni yechish malakasiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: “O‘zbekiston”, 2023 – yil <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. “Ta’lim to‘g‘risida”gi T.:2020 - yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. T.: 2019 yil 31 dekabr, 1059-son. <https://lex.uz/docs/-4676839>
4. [O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. Radjabova Nodira Ilhomboyevna “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning hayotga tatbiq etilishi “PEDAGOGLAR” huquqiy, tibbiy, ijtimoiy, ilmiy jurnal, 11(3), 162-164, 2022-yil.
6. Asqarov A “Milliy madaniyatimiz tarixi”.-T.:Ma’naviyat, 2002-yil 44-b.
7. A.Isomiddinov “Talabalarda etnomadaniy kompetensiya shakllanish darajalari”. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024-yil № 2) ISSN 2181-1709 (P) ISSN 2181-1717 (E) <https://doi.org/10.53885/edinres.2024.02.1.030> 150-154-betlar.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

8. Musurmanova O. “Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi”. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
9. Qahharova M. Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Falsafa fan. dok. ...diss. – T., 2012. – 157 b